

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI YO`NALISHI
401-GURUH TALABASI**

ЖО`РАБОЕВА QIZLARXONNING

**BADIIY ASARLARDA UNDALMA VA UNDAGI
PERESUPPOZITSIYANING O`RNI**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

NAMANGAN – 2011

M U N D A R I J A

Soʻz boshi	2
I BOB.Undalma haqida maʼlumot	6
Gapning aktual boʻlinishi	8
Undalmaning gap boʻlamlari bilan aloqasi.....	12
Undalmaning ifodalanishi va tuzilishiga koʻra turlari.....	20
II BOB.Undalmaning oʻrni va intonatsiya	28
Undalmaning semantik Xususiyatlari va turlari.....	34
Undalmalarda presuppozitsiya.....	42
Undalma stilistik vosita sifatida.....	48
Umumiy xulosalar	55
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	58

BADIIY ASARLARDA UNDALMA VA UNDAGI PRESUPPOZITSIYANING OʻRNI

REJA:

Soʻzboshi

I BOB

Undalma haqida maʼlumot

1. Gapning aktual boʻlinishi.
2. Undalmaning gap boʻlamlari bilan aloqasi.

II BOB

Undalmaning oʻrni va intonatsiya

1. Undalmaning ifodalanishi va tuzilishiga
koʻra turlari.
2. Undalmaning semantik Xususiyatlari va
turlari.

III BOB

1. Undalmalarda presuppozitsiya.
2. Undalma stilistik vosita sifatida.

Umumiy xulosalar
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

So'zboshi

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, halqimizning o'z birti, tili, madaniyati tarixini, qadriyatlarini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod - ajdodi kimligini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishini istaydi. Zero, "O'zlikni anglash tarixdan boshlanadi".¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bqoridagi fikriga tayangan holda, Xalq tariXining asosiy va ajralmas qismi bo'lgan Xalq tilining, uning o'ziga Xos fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o'rganish tariXiy an'analarimiz va kelajagimiz, taraqqiyotimiz uchun muhim omillardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Biz ham ushbu bitiruv - malakaviy ishni ana Shu nuqti nazardan **"Badiiy asarlarda undalma va undagi presuppozitsiyaning o'rni"** deb nomladik va o'zbek tilining grammatik jihatlariga, uning badiiy asarlardagi jozibasiga, tilimizning keng va beqiyos imkoniyatlariga nazar tashlamoqchi bo'ldik. Bitiruv – malakaviy ishimiz mazkur jihatidan **dolzarblik** kasb etadi.

Mavzuning o'rganilishi: O'zbek tili grammatikasining bir qismi bo'lgan sintaksis haqida, undalmaning gap bo'laklari bilan aloqasi, undalmaning ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turlari haqida, undalmaning nutqdagi o'rni va uning intonatsiyasi, undalmaning semantik Xususiyatlari va turlari, undalmalarda presuppozitsiya va undalmaning stilistik vosita sifatidagi tomoni va o'rinlariga bag'ishlangan bir talay ilmiy ishlar bilan tanishib chiqdik. Bu soha bzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar soni anchagina. O'zbek tilshunosligidagi zabardast olimlardan G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sayfullaev, R.Sayfullaeva, I.Abdullaev, M.Omilxonova, A.Abdullaev, M.Muhammadieva, I.Toshaliyev, H.Usmonova kabilarning xizmatlari salmoqlidir.

Biroq, kuzatishlarimiz jarayonida undalma va undagi presuppozitsiyaning o'rniga oid maxsus ilmiy ishlarni uchrata olmadik.

Ishning dolzarbligi: Bitiruv malakaviy ishning nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu mavzu o'zida uchta: undalmaning gap bo'laklari bilan aloqasi, undalmaning nutqdagi o'rni va uning intonatsiyasi, undalmalarda presuppozitsiya va undalmaning stilistik vosita sifatidagi tomonlariga bag'ishlangan masalalarni mujassam etgan. Iste'dodli Yozuvchilarning asarlaridagi misollar orqali ushbu mavzuni Yoritilishi dolzarb masalardan biri desak xato bo'lmas. Qolaversa, badiiy asarlarning tilini o'qib o'rganaYotgan har bir o'quvchi sintaksis haqida, undalma haqida, uning gap bo'laklari bilan aloqasi, ifodalanishi haqida, undalmaning nutqdagi o'rni va uning intonatsiyasi, undalmalarda presuppozitsiya va undalmaning stilistik vosita sifatidagi tomonlarini bilmagan o'quvchi uchun badiiyatning

¹Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: "Sharq" nashriyoti matbaa kontserni bosh tahririyati, 1998, 5-bet.

chinakam tasviri mavhum bo'lib qoladi. Zero, "Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas, o'zlikni anglash esa, o'z tilini, uning cheksiz imkoniyatlari va jozibasini bilishdan boshlanadi".²

Bitiruv - malakaviy ishning maqsad va vazifasi undalma haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'rganish va nazariy ma'lumotlarni to'plab, taqqoslash, undalmalarning ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash, undalmalarning leksik - semantik xususiyatlarini o'rganish, undalmaning gapdagi o'rni va intonatsiyasi masalalariga to'xtalish, undalmaning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy nutqda qanday o'rin tutishi va badiiy so'z ustasi – yozuvchilarning undalmalardan foydalanib tilimizning keng imkoniyatlarini qay darajada ochib berganliklarini yoritib berishdan iboratdir.

Ushbu malakaviy ishni yozishda va uni bzaga kelishida badiiy asarlar, turli lug'atlar, siyosiy adabiyotlar, ilmiy adabiyotlar, turli monografiyalardan muhim manbalar sifatida foydalanishga urindik. Bu manbalar orasida, ayniksa, Tohir Malikning "Shaytanat" asari va tilshunos olimlarimizdan G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning ilmiy adabiyotlardagi qimmatli nazariy fikr va Xulosalari eng muximlaridandir.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi quyidagilardan iborat:

So'z boshi, asosiy qism, xulosa, Shuningdek, unda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tavsifa etilgan. Malakaviy ishning so'nggi sahifasida mundarija qayd etilgan.

So'z boshida malakaviy ishning ahamiyati, uni Yozishdan ko'zlangan maqsadlar, mavzuning o'rganilish darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari ochib berilgan.

Asosiy qism esa ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda grammatikaning bir qismi bo'lgan sintaksis haqida, undalmaning gap bo'laklari bilan aloqasi va undalmaning ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turlari borasida fikr yoritiladi. Ikkinchi bobda esa undalmaning o'rni va intonatsiyasi, uning semantik Xususiyatlari va turlari, undalmalarda presuppozitsiya masalasi va undalma stilistik vosita sifatidagi o'rinlari ochib beriladi.

Malakaviy ishning xulosa qismida esa mavzudan kelib chiqqan umumiy xulosalar qayd etilgan.

I BOB

Undalma haqida ma'lumot

Gapda ba'zan, gapning bo'lagi vazifasidagi so'zlardan tashqari, Shunday so'z Yoki so'zlar guruhi ham bo'ladiki, ular Shu gapga mazmun jihatdan bog'lansa, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Ular gap bo'lagi bo'la olmaydi, bu jihatdan grammatik bog'lanmaganlik jihatdangina **"organizmga kirib qolgan voqeaga o'xshaydilar"**. (Peshkovskiy).

Bunday so'zlar nutqda intonatsion jihatdan pauza (to'xtam) bilan ajralib turadi.³

² Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: "Sharq" nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati.1998.

³ G'ulomov.A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. 1965 yil, 183-bet.

⁴ Tohir Malik. 2 -tom. Toshkent. 1994 yil. 42 b. *Bundan keyin beriladigan misollar shu va boshqa*

Gap bo`laklariga bog`lanmagan so`zlarning turli ko`rinishlari bor. Masalan: *TShunmadim, birodar men hech narsaga tuShunmadim, - Yigitali Shunday deb o`grildi. Hali bunaqasi bo`lmagan debdimi, demak, bo`lmagan. Asadbek – yaralangan Yo`lbars holidagi odam – kim o`q uzganini aniq bildi. (1-tom, 197-b.) Gapning avvali Shuki, sen u ishdan hijolat tortmagin, bolam. (2-t,165-b).*

Bu misollardagi *birodar, demak, yaralangan Yo`lbars holidagi odam, gapning avvali Shuki, bolam* kabi so`zlar va gaplar ma`lum maqsadning ifodasi uchun asosiy gapga kiritilgandir. Bu tipdagi so`zlarning bari undalamdadir.

Biz bu ishimizda badiiy asarlar tilida, ko`proq Tohir Malikning "Shaytanat" asarida qo`llangan undalmalarni va ularning asarda tutgan o`rnini, tasviriy bo`Yoqdorlikni oshirishdagi rolini, leksik - semantik xususiyatlarini o`rganishni o`z oldimizga maqsad kilib qo`ydik.⁴

Gapning aktual bo`linishi

Sintaksis - grammatikaning bir qismi bo`lib, unda kamida ikkita mustaqil so`zlarni sintaktik bog`lanishlari hamda matnlar o`rganiladi. Sintaksis termini ikki xil ma`noda qo`llanadi:

1.Tilning sintaktik qurilishi ma`nosida.

2.Tilning sintaktik qurilishini o`rganadigan grammatikaning bir qismi ma`nosida.

Tilning hamma qatlamlari o`zi o`rganadigan narsalarni umumlashtirish mavjudlashtirish xususiyatiga ega. Sintaksis mavhum umumlashmalar o`rtasidagi tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan munosabatlarni belgilaydi, ya`ni ayrim munosabatlarni emas, balki turkumlar orasidagi munosabatlar, tilning yarusi, ish mavzusi hisoblanadi. Til o`z vazifalarini gaplar orqali amalga oshiradi. Demak, gap tilning asosiy birligi bo`lib, odamlar orasidagi muloqotda muhim rol o`ynaydi. ***Bir Yoki bir necha so`zdan tashqil topgan predikativlik xususiyatiga va ohang butunligiga ega bo`lgan hamda nisbiy tugal fikr anglatadigan tilning muloqot birligi gap deyiladi.***

Har bir gap o`ining maqsad va vazifasiga ko`ra ma`lum ritmik musiqaviy tuzilishga ega bo`ladi. Gaplar tuzilish jihatdan sodda va qo`shma gaplarga bo`linadi.

Ifoda maqsadiga ko`ra darak, so`roq, buyruq va undov gaplarga bo`linadi.

Gapning hamma bo`laklari mavjudligi nuqtai nazaridan elliptik va noelliptik gaplarga ajratiladi.

An`anaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan har qanday gap qaysi tilga taalluqli bo`lishidan qat`iy nazar ikki qismga – bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga bo`linadi.

Bosh bo`laklar: ega va kesim, ikkinchi darajali bo`laklar: to`ldiruvchi, aniqllovchi, hol. Ega – gapning bosh bo`lagi bo`lib, gapdan anglashilgan ish-harakat kim tomonidan bajarilganligini, fikrni kimga, namaga qarashli ekanligini ko`rsatadi.

Kesim – gapning bosh bo`lagi bo`lib, ega to`g`risidagi asosiy axborotni o`zida mujassamlashtiradi. Aniqllovchi – gapda ot va otlashgan so`zlar bilan ifodalangan gap bo`laklarining sifati va ularning belgilarini ko`rsatadi.

kitoblardan olinadi. Ularda kitobning tomi va beti ko`rsatib o`tiladi.

To'ldiruvchi – gapning fe'l bilan ifodalangan biror bo'lagiga bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keladi. Odatda to'ldiruvchi kesim bilan bog'lanib, u to'grisida qo'shimcha ma'lumot beradi. To'ldiruvchi ikki xil: vositali, vositasiz bo'ladi.

Hol – gap bo'laklaridan kesimga va ba'zan umuman gapga bog'langan bo'lib fe'ldan anglashilgan ish-harakatni qay tarzda bajarilishini va uning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli sabab, maqsad, miqdor, o'rin - payt holatlarini ifodalaydi.

Bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog'langan birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo'lmagan ikki Yoki undan ortiq mustaqil so'z qo'shilmasi so'z birikmasi deyiladi. So'z birikmalari anglatgan ma'nolarga ko'ra so'zlarga o'hshash, ular so'zlar kabi nominativ munosabatga ega. Narsa va hodisalar, ularning xususiyati bilan birga qo'shib aytiladi. So'z birikmalari gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi. Gaplarda predikativlik munosabati bor, so'z birikmalarida Yo'q. Gaplar bir so'zdan iborat bo'lishi mumkin, so'z birikmasida kamida ikkita mustaqil so'z bo'ladi. Gaplar o'z ohang tuzilishiga ega, so'z birikmalarida bunday xususiyat yo'q. Gaplarda so'zlar orasidagi sintaktik munosabatlarni teng bog'lanish, ergash bog'lanish, predikativ bog'lanishga ajratish mumkin. Teng bog'lanish deganda ikki Yo undan ortiq bir-biriga teng bo'lgan so'zlar orasidagi munosabat tuShuniladi. Masalan, *kun va tun*.

Ergash bog'lanish deganda etakchi va tobe so'zlar orasidagi bog'lanish tuShuniladi. Ergash bog'lanish o'z navbatida moslaShuv, bitiShuv, boshqaruvga bo'linadi.

Predikativ - sintaktik munosabat ega va kesim Yoki ba'zi tillardagi predikativ konstruksiyani tashkil etuvchi qismlar orasidagi sintaktik aloqadir. Predikativ munosabat birinchi darajali predikativ munosabat va ikkinchi darajali predikativ munosabatga ajraladi. Predikativ munosabat bqorida qayd qilingan boshqa munosabatlardan quyidagicha farq qiladi: predikativ munosabat ish bajaruvchi va ish-harakat ma'nosini ifodolovchi so'zlar orasidagi munosabatdir. Bu munosabatni ifodolovchi ikki so'zdan biri doimo fe'ling biror shaklida bo'ladi.

Gapning aktual bo'linishi haqida gap ketar ekan, Shuni aytish kerakki, gapning aktual bo'linishi gapning shakll bo'linishiga qarshi qo'yiladi. Agar shakl bo'linishda gap tarkibi grammatik elementlarga bo'linsa, aktual bo'linishda, gap ma'no jihatdan bo'linadi. Gapning shakl bo'linishini asosiy elementlari ega kesim hisoblansa, aktual bo'linishning asosiy elementlari gapning ifoda asosi – gapning ifoda yadrosi, ya'ni nimani habar qilaYotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr ma'lumdan noma'lumga qarab harakat qiladi. Gapning aktual bo'linishida fikrning ma'lum qismi – ifoda asosi, noma'lum qismi ifoda yadrosi deb britiladi. Demak, gapni aktual bo'lishda gap ifoda asosi va ifoda yadrolariga bo'linadi.

Shuni aytish kerakki, gapning hamma tiplari ham aktual bo'linishga ega emas. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar, nominativ gaplar, to'liqiz gaplarni ba'zi tiplari aktual bo'linmaydi. Yozuvda gapni aktual bo'linishi tinish belgilar bilan ajratilmaydi. Ba'zi ifoda asosi va ifoda yadrosi tire bilan ajratilishi kuzatiladi.

Undalmaning gap bo'laklari bilan aloqasi

1990-2011 yillar o'zbek adabiyoti nasriga nazar tashlasak, bu davrda ko'plab asarlar yaratildi. SH.Xolmirzaev, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Omon Muhtor kabi yozuvchilarimizning bir talay asarlari, ayniqsa, Tohir Malikning "Shaytanat" asari Xalq orasida keng tarqalganiga va sevib o'qilgani va o'qilyotganiga guvoh bo'lamiz. YAratilgan asarlar xususida o'z vaqtida adabiyotShunoslarimiz fikrlarini bildirishdi va bildirishmoqda.. Asarlar tilshunoslik nuqtai nazaridan

o'rganilsa, arziydigan jihatlari ham talaygina, xususan, biz ularda qo'llangan undalmalar haqida fikr britamiz.

Badiiy nutqning kommunikativ va Shu bilan birga estetik funktsiya bajarishi ma'lum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajratib turadigan asosiy belgisi ham uning estetik funktsiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir. Bu narsa uning stilistik kobig'ini ham belgilaydi. Bunda umumXalq tilining boy sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati muximdir. Biz xuddi Shu o'rinda badiiy asarlar tilining sintaktik qurilishi, xususan, undagi undalma va uning tiplarini, semantik-stilistik xususiyatlarini kuzatish orqali Yozuvchining umumXalq tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi o'ziga xos jihatlari ochishga harakat qilamiz.

Avvalo, undalma nima? O'rta maktab, xususan, 8-9 sinflarning ona tili darsligida undalmaga Shunday ta'rif berilgan: *So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so'z undalma deyiladi.*⁵

Xuddi Shunday ta'rif A.G'ulomov va M. Asqarovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobda ham berilgan. "

Endi G'.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov va A.Xojievlar muallifligi ostida chiqqan "O'zbek tili grammatikasi" kitobda va V. Reshetov, S.Ibrohimov, U.Tursunov, F.Komolovlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitoblaridagi undalmaga berilgan ta'rifga e'tiborni qarataylik: *Undalma – so'zlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs Yoki predmetni ifodalagan so'z yoki so'z birikmasidir.*⁶ Ko'rinib turibdiki, birikmadagi ikki ta'rifdan ikkinchisi to'liq va mukammal hisoblanadi. Birinchi ta'rifda undalma faqat *shaxsga* deyilgan bo'lsa, ikkinchi ta'rifda predmetlarga ham tegishli ekanligini ta'kidlanadi. Tohir Malikning "Shaytanat" asari va ko'plab o'zbek prozasidagi boshqa asarlar, nafaqat ijodkorlarning o'z ijodlaridagina emas, balki hozirgi zamon o'zbek adabiyotida ham alohida o'rin tutadi, ularda boshqa asarlardagi singari mualliflarning Maksim Gorkiy ta'biri bilan aytganda, "Adabiyotning elementi bo'lgan tildan mohirona foydalana olganliklari yaqqol ko'rinib turadi.

Muallif tilining serbo'Yoqligi va tasviriy ifodalarga boyligi "'Shaytanat"da to'laligicha namoyon bo'ladi. Bu narsa fikr qaratilgan shaxsning etiborini tortish uchun qo'llangan vositalarda - undalmalarda ham ochiqdan-ochiq ko'rinadi. Asardagi undalmalarni tahlil qilish asarda qatnaShuvchilarning o'zaro munosabatlarini, ularning o'ziga xos Xarakterlarini o'rganishga va Shu bilan birga, muallifning individual uslubi haqida fikr britishga Yordam beradi. Asarda mingdan ortiq undalma qo'llangan bo'lib, ular ob'ekt nuqtai nazardan, asosan, shaxsga qaratilgan undalmalardir.

Undalma bosh kelishikdagi ot Yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib gapning umumiy mazmunini to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini ko'rsatib turadi. Undalma ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Undalmaning asosiy

⁵ Asqarova M, Abdullaev I, Omilxanova M. Ona tili 8-9 sinflar uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 1995, 118-B.

⁶Abdurahmanov G', SHOabduraxmonov SH, Xojiev A. O'zbek tili grammatikasi, "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1976, 259-B. Reshetov. V.V va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis.T. "Fan", 1966, 284-B.

vazifasi nutqqa, aytilaYotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir. Bu xususiyat undalamning dialogik nutq uchun Xarakterli ekanini ko'rsatadi.⁷

Tarkibida undalma bo'lgan gap ko'pincha undov, buyruq gap tarzida bo'ladi: **Hamdam, guvohlarni chaqirdi.** (I tom, 285-bet). **Kelin, siz xech narsaga ovora bo'lmang.** (II tom 262-bet). **Zaynab, bu gaplarni miyangizdan chiqarib tashlang, ishonmayman!** (II-tom 375-bet).

Bundan tashqari, undalmani ko'proq so'roq gaplar tarkibida kelganini ko'rish mumkin: **Haydar, SHilimshiq qanday o'ldirilganini ko'rganmiding?** (II tom, 375-b). **Aka, ahvol chatoq, men bilan Farg'onaga borib kela olmaysizmi?** (II tom, 374-b.) **Maxmud, sen aniqlab ko'r, nima uchun tuShum kamayibdi?** (II tom, 119-b).

Undalma vazifasidagi so'z undash intonatsiyasiga ega bo'ladi. U odatda bosh kelishik shakldagi (masalan, ega vazifasidagi) so'zga o'xshash bo'ladi, lekin boshqa xususiyatlar bilan birga undash intonatsiyasi uning ega funktsiyasidagi so'zdan farqlanishini ko'rsatadi.

Undalma ba'zan o'z maxsus ko'rsatkichiga ega bo'ladi, bu vaqtda undalma **-u, -b, -ov, -ey** kabi shakllar bilan birga keladi Yoki uning ohirgi bo'g'inidagi unli cho'ziladi. Bunda ikki holat bor. Bu unli ko'pincha o'zgaradi – boshqa unliga aylanadi, uzunlikni ham saqlaydi, ba'zan boshqa unliga aylanmay, faqat uzunlik ohangini oladi. **Voy bolam-ey, sal kechikib kelibsiz-da.** (II tom, 137-b). **Voy bolam-ey, qo'y bu o'ylaringni.** (II tom, 370-b). **Hoy, xo-oy, Qizlar-ov, ovqatga-a-a..!** (O'tkir Hoshimov. "Istirob" 20-b). Bu undalmalarda intonatsiya kuchli bo'ladi va unlining uzunligi, almashishi ma'lum konuniyatga ega: **i-y, a-y, o-y** kabi. Bunday almashtirish orqali tovushlar kuchli undosh intonatsiyasiga moslashtiriladi.⁸

Undalma ba'zan gapning ichhamlashishida katta rol o'ynaydi. Tarkibida undalma bo'lgan gapning kesimi bilan ifodalangan harakat, belgining logik subekti, belgining taShuvchisi - egasi Shu undalmadan anglashilgan shaxs - predmet bo'lsa, gapning egasi ko'pincha "yashrinadi". Bunday vaqtda eganing mazmuni kontekstdan Shu undalma orqali aniq bilinib turadi: "yashiringan" ega, sen Yoki siz olmoshi bo'ladi. (ega o'sha gapdagi kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi, belgining taShuvchisi bo'lmaganida, undalma boshqa so'z bilan ifodalanadi). Masalan: **Zeliya, (sen) yaxshi keldingmi?** (II tom, 295-bet). Bunday konstruksiyalarda undalmaning ko'plik shaklda, Shuningdek, erkalash, hurmat bildiradigan elementlar olgan holda qo'llanishi va eganing ham Shu shakllarini olishi o'zaro aloqadordir. (bu aloqani egalik affikslarida, tuslovchilarida ham ko'ramiz). Bunda moslashish bor. *Chog'ishtiring:*

1. **Do'stlar, sizlar boraveringlar.**
2. **Bolalar. (Sizlar) buni hammaga ko'rsatinglar.**
3. **Oyijon, (Siz) bermasangiz ham bo'ladi.**
4. **Oyijon, (siz) aralashmang.**

Bular biri ko'plik, boshqasi birlik kabi shakllarida qo'llanganida ham, o'zaro munosabat orqali ma'nosi mos bo'laveradi. Bunday hollarda undalmaning kishi otlaridan yoki bundan boshqa otlardan bo'lishi ham katta ahamiyatga ega.

Undalma gapning bosh Yoki ikkinchi darajali bo'laklari bilan moslaShuv, boshqaruv, bitiruv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo, u gapning ayrim bo'laklari Yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri

⁷Mahmudov N, Nurmonov A.O'zbek tilining nazariy grammatikasi.T., "O'qituvchi", 1995. 189-B.

⁸ G'ulomov.A, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1966.183-B

hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chikarilishi Yoki xatto o'rnining o'zgartilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallifning aytmoqchi bo'lgan fikri anglashilmay koladi. Undalmaning ajratilgan izohlovchiga yaqin bo'lgan turida aloqaga kirish xususiyati aniq ko'rinadi, chunki undalma ma'lum bir bo'lakning ma'nosini izohlaydi:

Bosh turmushim, ko'nglimning jo'ri,

Bularning hammasi sen, Vatanim – onam.

Misoldagi ***Vatanim – onam*** undalmasi sen olmoshini izohlaydi, Shu bilan birga bu undalma butun gapning mazmuni bilan ham aloqadadir.

Bu xil undalmaning asosiy vazifasi undalma bo'lsa ham unda izohlash xususiyati ham bor. Bunday undalmalarning ajratilgan izohlovchilardan farqi quyidagicha :

1. Undalma chaqirish intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Ajratilgan izohlovchilar esa, ajratilgan sust intonatsiya bilan aytiladi.

2. Undalma nutq qarashli bo'lgan ob'ektni ifodalaydi, izohlar esa biror bo'lakni izohlaydi. (undalma ham ba'zan izohlashi mumkin). Ammo uning undalmalik xususiyati birinchi rejada bo'ladi.

3. Undalma bosh kelishikda bo'ladi. Izohlar izohlanmishining shakliga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Undalma ma'no jihatdan butun gapga Yoki uning bir bo'lagiga tegishli bo'ladi.

Butun gapga tegishli bo'lganda undalma ko'pchilikka qaratilgan bo'ladi:
Birodarlar, birovni qidirayapsizlarmi? (II tom 27-b).

Undalma bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga aloqador bo'ladi:

1. Ogaga: ***Sen, Asad, anarhist ekansan.*** (II-tom, 282-b).

2. Kesimga: ***Bizni tashlab ketmang, amaki, Yordam bering.*** (II tom 279-b).

3. To'ldiruvchiga: ***Anvar, seni boshqalar bilmasa ham, men yaxshi bilaman.*** (II-tom 276-b).

Undalma gap bo'lagi bo'la oladimi?...

Bu savolga bir kator olimlarimiz o'zlarining fikrlarini bildirishga harakat kilishgan.

20-yillarda yartilgan grammatikaga oid ishlarda gapdagi har bir so'zni gap bo'lagi sifatida talqin etilgan. Shu tufayli ikkinchi darajali bo'laklar:

1) ***"chin ergashlar"*** Yoki ***"chin to'ldirgichlar"***

2) ***"o'gay ergashlar"*** Yoki ***"o'gay to'ldirgichlar"*** ga ajratib berilgan. undalmalar mana Shu ***"o'gay"*** bo'laklar doirasiga kiradi.⁹

M.Zakiev kirishlar, kiritmalar va undalmalar grammatik jihatdan bog'liq bo'ladi, bu aloqaning tashqi ifodasi intonatsiyasi va modal munosabatdir, deb ta'kidlar ekan, ularni Yo'ldosh bo'lak sifatida emas, u gapning teng huquqli bo'lagi – modal bo'laklar deb hisoblash kerakligini uqtiradi.¹⁰

Professor. G'. Abdurahmonov va L. Sayfullaevlar ham undalma kirishlarni asosiy gap Yoki gap bo'laklari bilan mazmunan va sintaktik jihatdan bog'liq maxsus gap bo'laklari sifatida qaraydilar. G'. Abdurahmonov undalma va kirish bo'laklarini asosiy gap bo'laklariga sintaktik bog'lanish usuli o'ziga xos Xarakterga ega bo'lib, teng aloqaga ham tobe aloqaga kirishmasligini aytadi. Undalma va kirish

⁹ Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek tilida kiritma konstruksiyasi.T., 1976.15-B.

¹⁰ Zakiev M. Sintak-y stroy tatarskogo yazika. Kazan, Izd. Kazanskogo gosunivers., 1963. 73-75-S.

bo`laklarini bog`lanish grammatik munosabatlarni 3 turi izohlash aloqasi ekanligini va ularda yarim peredikativlik mavjudligini ko`rsatar ekan, ularni gapning uchinchi darajali bo`laklari deb atash maqsadga muvofikligini ta`kidlaydi.¹¹

S. Usmonov, A. Rustamov, H. Uzoqovlarning fikricha, undalma gap bo`lagi bo`la olmaydi, uning asosiy gap bilan bo`lgan munosabati logik - semantik munosabatdan boshqa narsa emas<sup>12</sup>, chunki "....."gap bo`laklari logik - semantik tuShuncha bo`lamay, u eng avvalo funksional (komunikativ) tushunchadir".¹³

Undalmalar, kirish va kiritmalar gap bo`laklari bilan ma`lum bir grammatik munosabatlar orqali bog`lanadi, deyish bilan gap bo`laklari haqidagi ta`limot gap tarkibida katnashgan barcha hodisalarni to`la kamrab olganday bo`lib ko`rinadi. Biroq bu ham masalani ilmiy jihatdan to`la hal qilmaydi. chunki bu kirish va undalmalarning asosiy gap bo`laklari bilan bo`lgan munosabatining Xarakterini atroflicha o`rganishni hamda ularni odatdagi gap bo`laklardan chegaralashni taqazo etadi.

Demak, undalma gap bo`lagi bo`la olmaydi, chunki, gap bo`laklarida ajratishning bosh mezonini bo`lgan tobelanish (domenatsiya) talabiga javob bermaydi.

Undalmalarning ifodalanishi va tuzilishiga ko`ra turlari

Undalma bosh kelishikdagi ot Yoki ot ma`nosidagi so`zlar orqali ifodalanadi. "Shaytanat" asrida qo`llangan undalmalarning asosiy qismini ot so`z turkumiga mansub bo`lgan so`zlar tashkil etadi.

1. Ot orqali ifodalanganda, asosan, atoqli otlar Yoki turdosh otlar bo`lishi mumkin. Atoqli otlardan eng ko`p uchraydigani kishi ismlaridir: **Yigitali aka, bizda bunaqa odat Yo`q. (II tom, 24-b). Qo`ysangiz -chi, SHoali aka, o`hshatishga topgan jonivoringizni qarang. (II tom, 147-b). Easingizdami, Anvar, maktabda "Tumov bo`lgan oshiq" degan she`riing bor edi. (I tom, 18-b).**

Asarda familiya va otasining ismi bilan ifodalangan undalmalar ham ko`plab uchraydiki, bu holat rasmiy munosabatlarni Yoritish maqsadida qo`llanadi. Asosan, Zohid SHaripov va Arina Bergir kabi sud prokuratura xodimlarining nutqida bunday holatlar ko`p kuzatiladi: **Gap bunday Petrashvili, biz obro`ymizni to`kmaslikka harakat qilamiz (II tom, 140-b). Namozov, Kozlov bergan ikki millionni kaerga qo`yding? (III tom, 168-b). Arina Iosifovna, qo`shinlarni chaqiraymi? (III tom, 168-b).**

¹¹ Abdurahmonov G`.O`zbek tili sintaksisidagi murakkab gaplar masalasiga doir. O`z. t. va ad. jurn. 1962.3-son. O`zbek tili sintaksisining ba`zi masalalari. O`z. t. va ad. jurn. 1968.2-son. 9-11-B.

¹² S. Usmonov, A. Rustamov, H. Uzoqov. Tilshunoslikda muhim voqea. "O`zbekiston madaniyati" gazet. 10 dekabr, 1966.

¹³ Solntsev.V.M. YAzik kak sistemno strukturnoe obrazovnie.M., izd. "Nauka"1971.203-208-S.

na asarda Shunday holatni kuzatish mumkinki, bunda predmetlarga atab qo'yilgan atoqli otlar ham undalma bo'lib kelgan: **Hayr, bviqsiz Rossiya!** (III tom, 38-b).

Turdosh ot shaxsini ifodalovchi, jonsiz va jonli predmetlarni ifodalovchi so'zlar hisoblanadi. Asarda qo'llangan undalma vazifasidagi turdosh otlar, asosan, shaxsni ifodalovchi so'zlardir.

Ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

a) qarindoshlikni bildiuvchi otlar: **Quda hola, kim nima desa ishonaverasizmi?** (II tom, 50-b). **Umid bilan yashagin, qizim, xudo hoxlasa, hammasi yaxshi bo'lib ketadi.** (II-tom, 305-b).

b) kasb – mutaxassislikni bildiruvchi otlar: **Doktor bu Asadbekning qizi.**, (II tom, 312-b). **QaYoqqa deb so'ramaysanmi?** (II tom 67-b).

c) vazifasi, amali va uni bildiruvchi otlar: **Zohid endi Moskvaga bormaydi, o'rtok professor.** (I tom, 61-b). **aldayapti, o'rtok doktor.** (II tom, 141-b). **O'rtiq maYor, siz telefonda gaplashganingizda men kaltafahmlik davosini o'ylab topdim.** (II tom, 67-b).

d) laqabni bildiruvchi otlar: **ndi sen pachag'i chikkan odamsan, akademik.** (II tom, 216-b). Bu o'rinda akademik asl ma'nosida qo'llanmagan. **Akademik** ZeliXonning laqabi bo'lib, u o'g'rilar orasida aqli va farosatining zo'rligi uchun Shu laqabni orttirgan.

j) yaqinlik, do'stlikning bildiruvchi otlar: **Sen ham men ham, og'ayni, bu dunYoga o'lim bilan berkimachiq o'yinagani kelganmiz.** (II tom, 116-b). **ndi hammaning xudo deydigan vaqti keldi, oshnam.** (I-tom, 366-b).

z) jinsni bildiruvchi otlar: **Qumorda hazil bo'lmaydi, rkak.** (II tom, 7-b). **Bu Yoqqa o'tiring, o'g'il bola.** (I tom, 71-b).

2. Undalma otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi: bunday otlashgan so'z ko'pincha sifat Yoki sifatdosh, ba'zan son bo'ladi. "Shaytanat" asarida so'zlar, asosan, otlashgan sifatni uchratish mumkin. Eng ko'p uchraydigan otlashgan sifatlar "**azizim**" so'zidir. Bu so'zni asarning kahramonlaridan bo'lgan olim Hikmat O'rolov nutqida juda ko'p qo'llanganini ko'rish mumkin. Bu bilan Yozuvchi O'rolovning o'ziga xos nutqi va Xarakterini to'la ochib berishga harakat qilgan: **Azizim, siz bahsni yaxshi ko'rasiz, bilaman.** (II t, 254-b). **O', azizim, sizni ko'rganimdan bag'oyat xursadman.** (II T, 259-b).

na asarda boshqa xil otlashgan sifatdoshlarni undalma bo'lib kelishini ko'rishimiz mumkin: **Hoy yaxshilar, bu uyda domla turadi.** (II t. 26-b). Bu gapda **yaxshilar** so'zi otlashgan sifat hisoblanadi. Bu erda **yaxshi odamlar** so'z birikmasi bo'lib. aniqllovchi va aniqlanmish munosabati mavjud bo'lgan. Lekin nutq jarayonida aniqlanmish tushirib qoldirilgan va **yaxshi** so'zi otning grammatik ko'plik shaklini olib, substantivatsiyaga ga bo'lgan. Otga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarning affikslarini qabul qila oladigan boshqa so'z turkumiga mansub so'zlar otlashgan hisoblanadi.

3. Undalma olmosh orqali ifodalanilishi ham mumkin. Bu vazifada, asosan, ikkinchi shaXs kishilik olmoshi qo'llanadi. Undalma vazifasidagi olmosh, asosan, kesimsiz bir sostavli gaplarda ishlatiladi: **y sen, boshi aylangan, ko'zi tingan, Xayr!** Bu Xil gaplarda sen so'zi undalma bo'lib, uni izohlab keluvchi so'zlar ajratilgan izohlovchi bo'ladi.

Agar bu xil olmosh ikki sostavli gapda qo'llangan bo'lsa, u ga vazifasida bo'lib, olmoshga oid so'z undalmadir. **Siz, bo'tam, Asadjonsiz, to'g'ri**

faxmladimmi? (II t, 288-b). Bu misolda *siz* olmoshi ega, *bo'tam* esa, undalma vazifasida kelgan.

Olmosh ikki sostavli gaplarda ham undalma vazifasida qo'llanadi: *Эй, сен, мена igna ber.* (II t, 112-b). Bu holda sen undalmasi chaqirish, murojaat intonatsiyasi bilan ajratiladi va undan so'ng pauza bo'ladi. Bunday undalmalarda so'zlovchining qo'pol va rasmiy muomlasi anglashiladi.

4. Undalma ko'pincha undov so'zlar bilan birga qo'llanadi. Undashning kuchli ifodalanish uchun undalmaning oldida *hoy, hov, hey, ey* kabi undov so'zlar keladi Yoki ohiriga -ov (xov, xoy) ey (эy) kabi elementlar qo'shilib keladi: *Ey prokuror, ko'zingii och.* (II t, 48-b). *Hoy, Xonzodaxon, issiq kiyimlarni olib chiqing.* (I t, 150-b). *Hoy, baloyi nafs, nima kilobsan?* (II t, 68-b).

Shu bilan birga undov so'zning o'zi ham mustaqil ravishda undalma vazifasida qo'llanishi mumkin. Bunday undov so'zning mazmunan shaxs nomi o'rnida kelgani anglashilib turadi: undalmaga xos chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi: *O', bor, quloqqa lag'mon osma, -dedi o'ng tomonda o'tirgan bola* (II tom, 16-b). Bu misolda o' undovi undalama bo'lib kelgan, Hosil degan ismning o'rnida qo'llangan. yoki yana bir misol: *Hay, o'rtoqlaringga ko'shilib ichmagin-a?* (II t, 11-b). bu misoldagi *hay* undovi undalma bo'lib, o'g'lim degan so'zning o'rnida qo'llangan.

5. Undalma so'z birikmalari, turg'un frazeologik birikmalar orqali ham ifodalanadi: *Hoy, dushman bolasi - dedi o'dag'aylab, - sen nega xudoni gapirasan?!* (II t, .360-b). *Sen, tomi ketgan, "Qilichdan habar olib tur" deganimda burningni jeyirgan eding* (II t, 42-b). Bu misollardagi undalmalardan biri *dushman bolasi* so'z birikmasi, ikkinchisi *tomi ketgan* esa, frazeologik birikma bo'lib, ahmoq degan ma'noni anglatadi.

6. Asarda yana shevaga xos bo'lgan so'zlarning undalma vazifasida kelganini ko'rishimiz mumkin: *Kelinoyi, bir gap bo'ldimi, erta sahardan kelib turibsiz?* (II t, 104-b). Bu misoldagi *kelinoyi* undalmasi shevaga oid so'z hisoblanadi. Yozuvchi, asosan, Toshkent shevasida uchraydigan bu so'zni qo'llash orqali kahramon Yoki so'zlovchining toshkentlik ekanini isbatlatlab tasvirlay olgan. Yoki quyidagi misolni ko'raylik: *Ada, men tirikman!* (III t, 62-b). Misoldagi *ada* so'zi ham toshkentliklar shevasiga xos bo'lib, faqatgina Shularning o'zidan ham asardagi voqealar qayerda ro'y beraYotganini anglash mumkin.

7. Undalamlar vulgarizmlar bilan ifodalanishi mumkin. Asarda bu holatlar juda ko'p uchraydi, chunki Shaytanat olami vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini ochishda, ya'ni ularning bir - biriga bo'lgan munosabati, axloq doirasining qay darajada ekanini Yoritishda vulgarizmlarning ham roli beqiYosdir: *Uyingga kir, xunasa !* (II t, .347-b). *Vey, ahmoq, qayerda chirishingni nima ahamiyati bor?* (II t, 302-b). *Kelib -kelib o'shandan panoh izladingmi, ey so'tak!* (II t, 72-b). Bu o'rida *ahmoq, xunasa, so'tak* undalmalari vulgarizm hisoblanib, bunday so'zlarni Haydar, Hosil boyvachcha, Asadbek kabi timsollar nutqida tez-tez uchratish mumkin.

8. Varvarizmlar ham undalma bo'lib, kelganini quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *Bo'lmaydi, zemlyak!* (I-t.90-b). *Qani -kani, bratishka, ko'tar, mashinaga olib chik!* (II t, 18-b). *Vey, bratan, man o'zim borganman.* (II t, 46-b). Misollardagi *bratishka, zamlyak, bratan* undamlari rus tiliga oid bo'lgan so'zlardir. Yozuvchi bu so'zlarni personaj nutqini individuallashtirish maqsadida qo'llaydi. O'zbek tilida bu so'zlar o'rnida qo'llanuvchi so'zlar bor bo'lsa-da, ularni qo'llamay, yozuvchi o'zini rus tilini yaxshi biladigan kilib ko'rsatish uchun Shunday ruscha so'zlarni aralashtirib gapiruvchi kimsalarning Xarakterini ochadi.

Ma'lumki, undalamalar tarkibiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

1. **Yig'iq undalmalar.**

2. **YOyiq undalmalar.**

3. **Murakkab undalmalar.**¹⁴

1. **Yig'iq undalmalar** Yolg'iz bir so'zdangina tarkib topadi. **Kelinoyi, bir gap bo'ldimi, erta sahardan kelib turibsiz?** (II t, 104-b.) kabi.

2. **YOyiq undalmalar** o'ziga oid so'zlar bilan kengayib keladi. Undalarmaga oid so'zlar aniqlovchi Yoki izohlovchi vazifasida bo'ladi. Bu aniqlovchi Yoki izohlovchilar quyidagi so'z turkumlari orqali ifodalanadi:

a) *sifat:* **Men darrov chiqara olmayman, yaxshi yigit.** (II t, 17-b). **O', Yosh hamkasbim, ishdagi btuqlar qalay, yaxshimi?** (II t, 199-b).

b) *sifatdosh:* **Sevar Yorim, bo'ldi bas! Bu damlar qaytmas. Ko'nglim ko'pni demas, qovoq och bir pas.** (O. Bekmirzaeva, "Kulfi dil", 27-b).

v) *ot:* **O', kuYov bola, sal pastroq tushing.** (II t, 188 - b). **Yo'q, kelisholmaymiz, grajdanin Petrashvili.** (II t, 167-b). **Keling, Xofiz aka, nimaga turibsiz, o'tiring.** (II t, 168-b).

g) *olmosh:* **Ha, mening ukaginam, tinchlimi?** (II t, 38-b).

Undalmalarning qaratkich kelishigidagi ot, son, ko'rsatish olmoshi bilan kengayib kelgan turlari kam qo'llanadi. Bunga sabab Shuki, bu so'z turkumlari ortiqcha konkretlik kiritadi. Ma'lumki, undalma bunday konkretlikni talab etmaydi: **Sen, unurning bolasi, menga to'ng'illama.** (III-t,95-b). **Bu Yoqqa kel, dushman bolasi.** (III-tom, 93-b).

3. **Undalmaning quyidagicha murakkab shakli bo'ladi:**

a) Yolg'iz undov so'z bilan Yoki undov so'z bilan barobar, aniqlovchi, izohlovchilar bilan birga kelishi mumkin. Bu holda kuchli emotsional ma'no ifodalanadi: **Ey, mehmon, zamonni qo'yarering, hozir diydor g'animat.** (II t, 59-b). **Ey inson, odam degani qo'yini qassobga bersa ham, so'yguncha poylab turadi.** (III-t.174-b). **Vey, paxan, uylar nishtiyak -ku, a?** (III t,164-b).

b) undalmaning tarkibida aniqlovchi ergash gap bo'lishi Yoki ergash gap shaklida bo'lishi mumkin: **Pora emas, bolangdan aylanay ginrol.** (II t, 69-b).

v) undalma takrorlanib kelishi mumkin. Bu hol kuchli his- hayajon ifodalanganda, undalamaga alohida ahamiyat berilganda ro'y beradi. Undalma takrorlanganda aynan qaytarilishi, aniqlovchi bilan birikib kelishi Yoki undalmaning o'rnini mazmunan bosuvchi boshqa so'z bilan almashib, qaytarilishi mumkin: **Turdi, Turdi, eshityapsanmi?** (II t, 90-b). **Mana hammasi tayYor, hozir o'zim olib borib topshiraman, deb turuvdim, Xosiljon, bolam, sen aytgin; topshirmokchiydim-a?** (II t, 18-b).

g) undalma ubshib keladi: **Anvar aka, Habib Sattorovich, o'zingizni bosing** (II t, 248-b). Qator kelgan undalmalarning ohirgiisida intonatsiya ko'tarilib, oldingilari sanash ohangida aytiladi. Ubshgan undalmalarning joylashish tartibi ularning xususiyati, ahamiyati, ma'lum shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini, Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bo'ladi.

¹⁴ Abdurahmanov G', SHOabduraxmonov SH, Xojiev A. O'zbek tili grammatikasi, "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1976, 269-B.

II BOB

Undalmaning o`rni va intonatsiya

Undalma gapning har erida kela oladi: gapning boshida ham o`rtasida ham, ohirida ham.

Undalmaning o`rni uning semantik funktsiyasiga, stilistik xususiyatiga, tarkibiga, asosiysi, gapning strukturasi va mazmuniga bog`liq bo`ladi. Yozuvchilar o`z asarlarida undalmalarni uch holatda qo`llaydi: *prepozitiv*, *interpozitiv* va *postpozitiv*.

Prepozitiv (odatdagi) holatda, ya`ni undalma gap boshida kelganda so`zlovchining maqsadi tinglovchining diqqatini tortish bo`lib, fikr konkret adresatga qaratiladi: *Egachi, o`g`lingiz keldilar.* (II t, 234-b). *Mahmudjon, bolam, o`tir, gapimni aytama-nu ketaman.* (II t, 163-b). *Qorijon, do`xtirlar bilan gaplashib olib ketaymi?* (II t, 127-b). Gapning boshida kelgan undalma boshqa o`rinda keladigan undalmaga nisbatan kuchlirok ajratiladi, unda har vaqt ajratuvchi pauza bo`ladi. Atoqli otdan ifodalangan undalmaning ko`pincha gap boshida kelishi ham Shu xususiyat bilan bog`lanadi.

Interpozitiv holatda, ya`ni undalma gap o`rtasida kelganda esa, so`zlovchi uchun tinglovchining diqqatini tortishi emas, balki u bilan aloqani uzmaslik muhimligi anglashiladi. O`rtada kelgan undalama kuchsizrok ajraladi: pauza ham kuchsiz bo`ladi. O`rtada kelgan undalma Shu bilan birga ko`pincha kirish so`zga o`xshab tezrok, Shuningdek, pastroq ohangda aytiladi. Gap boshida kelgan undalma undash funktsiyasini bajarish bilan Xarakterlansa, gap o`rtasida va gap ohirida keladigan undalmalar ko`pincha undov vazifasi bilan emas, balki emotsinallikni, modallikni - so`zlovchining suhbatdoshga munosabatini bildirish uchun xizmat qiladi: *Kechirasiz, domla tarixga ikki xil ko`z bilan karab bo`lmaydi.* (II t, 366-b). *Qani, Ahadboy, o`rningdan tur ketdik.* (II t, 344-b). *Boshingni ko`tar, Fediya, mendan uyalma.* (III t, 259-b).

Postpozitiv holatda, ya`ni undalma gap ohirida kelganda avval fikrni ifodalanadi, so`ngra tinglovchining diqqati tortiladi. Tinglovchi va so`zlovchi orasidagi aloqa bunday holatda nihoyatda sustlashadi. Ohirida undalma kelgan gaplar ko`pincha tarkibiga ko`ra ancha yig`iq bo`ladi; *Sizdan iltimos, uka* (II t, 346-b). *Siz hijolat chekmang, Tolibjon.* (II t, 354-b). *Mashinangiz topildimi? Kori bolam?* (II t, 157-b).

Odatda undalma modal munosabatni ifodalovchi gaplardan (*Xo`p, salom, xayr, rahmat, horman, kechirasiz va boshqalar*) so`ng keladi. Shuningdek, undalma *ha* va *Yo`q* so`zlaridan keyin ham qo`llanadi: *Rahmat, uka, ovvora bo`lmang.* (II t, 109-b). *Yo`q, ota, kalta o`ylamang.* (II t, 249-b). *Assalomu alaykum, hofiz.* (II t, 351-b). *Marhabo janob, qalbidasiz. kechirasiz opa, siz kim bo`lasiz?* (II t, 106-b). *Labbay, okaxon!* (II t, 69-bet).

Undalma ayrim pauza bilan ajralib turadi, uning o`z undash intonatsiyasi bor. U juda emotsional bo`lgan nutqlarda undov intonatsiyasi bilan aytiladi. Undalma o`zida intonatsional tugallik elementlarini aniqlaydi. Lekin adabiy til

asosida qurilmagan nutqda undalmaning ajratuvchi pauzasi baʼzan saqlanmaydi. Undalma bunday hollarda oʻrniga qarab, boshqa soʻzlar bilan fonetik jihatdan aralashib ketishi ham mumkin. Masalan: **bor, uka - bo-ru- ka**, bunday oʻrinlarda mazmun va grammatik holat boshqacha boʻlib ketishiga Yoʻl ochilishi ham mumkin, lekin kontekst dastlabki holatni saqlaydi. Masalan: **Mohira, opam kuldi.** (*Mohira - undalma*). *Mohira opam kuldi.* (*Mohira degan opam kuldi*). *Mohira, opam kuldi* (sanash ohangida: *Mohira va opam*). *Mohira, opam kuldi.* (ajratilgan boʻlak: *Mohira, yaʼni opam*).

Undalma alohida chaqiriq, murojaat intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Ammo bu intonatsiya turli darajada boʻladi. Undalma intonatsiyasining darajasi undalma orqali ifodalanaYotgan maʼnoga asosiy gapning Xarakteriga, (soʻroq, undov Yoki darak gap boʻlishiga) tarkibiga, oʻrniga, nihoyat, muallifning malum mazmunni ifodalash niyatiga bogʻliq boʻladi. Shu sababli ham bir xil oʻrinda boʻlsa ham Xarakteriga koʻra undalma turli intonatsiya bilan aytilishi mumkin:

1) darak gapda - past intonatsiya bilan: **Anvar, rostdan ham bilmayman** (*II t, 337-b*).

2) undov gaplarda - kuchli intonatsiya bilan: **Toʻxtanglar, oʻtoqlar, tinchlaninglar!** (*II t, 45-b*).

3) soʻroq gaplarda alohida logik urgʻu olgan undalmalardan soʻng choʻziq pauza beriladi: **Ha, ovsin, gapimiz Yokmadimi ?** (*II t, 249-b*).

Undalamaning ntonatsiyasiga, albatta, uning oʻrinlashishi taʼsir etadi. Gap orasida Yoki ohirida kelgan undalma gap boʻlaklari intonatsiyasidan kam farqlanuvchi intonatsiya bilan aytiladi. Gap boshida kelgan undalmalar bilan alohida ton bilan, choʻzibroq talaffuz etiladi. Ayrim hollarda undalma kuchli his - hayajonni ifodalab, koʻtarilgan intonatsiya bilan aytiladi va Shunga koʻra, undalmalardan soʻng undov belgisi koʻyiladi: **Jalil! Kiraver, uydaman!** (*III t, 124-bet*). **Hayvon, sen haddingdan oshyapsan!** (*III t, 352- b*).

Asosiy gap mazmuni va intonatsiyasining undalma intonatsiyasiga taʼsiridan tashqari semantik funksiyasiga koʻra ham oʻziga xos turli intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Undalmaga qancha ahamiyat berilsa Yoki undalma orqali qancha chuqur emotsional mazmun ifodalansa, uning intonatsiyasi Shuncha kuchli boʻladi.¹⁵ Undalmaning Xarakterlovchi intonatsiya belgilaridan biri pauzadir. Kuchli Yoki normal chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etilgan undalma boshqa gap boʻlaklaridan pauza bilan ajratiladi: **Haydar! Ablah! Nima qilyapsan?** (*III t, 193-bet*). **Yoʻqol, hayvon! Yoʻqol!** (*III t, 193-b*). Birinchi misoldagi undalma kuchli intonatsiya bilan aytilib, kesimdan pauza bilan ajralgan va bu Yozuvda undov belgisi koʻyish bilan ifodalangan. Ikkinchi misolda undalama har ikki tomonidagi kesimdan ham pauza bilan ajratilgan, birinchi kesimdan vergul bilan, ikkinchi kesimdan undov belgisi bilan ajratilgan.

Alohida taʼkidlovchi, chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etiladigan undalma oʻziga oid soʻzlar bilan kengayib keladi, Yoki undov bilan birikadi, Yoki takrorlanib keladi. Bunday undalmalar aniq pauza bilan ajralib turadi: **Nomozov! chik!** (*II t, 336 - bet*). **Nadulya, mehmonni yaxshi kutib olmayapsan!** (*II tom, 110-bet*).

Ubshgan undalmalar ham toʻliq chaqiriq intonatsiyasi bilan tafaffuz kilinadi. Undalmalarning ubshishini "Shaytanat"da kam uchtaratamiz, lekin quyidagi murojatni anglatuvchi gapda undalmaning ubshishini kuzatishimiz mumkin: **Ustozlar,**

¹⁵Abdurahmanov Gʻ, SHOabduraxmonov SH, Xojiev A. Oʻzbek tili grammatikasi, "Fan" ashriyoti, Toshkent, 1976, 265-B.

talabalar, mehmonlar! Qani, davraga marhamat! Bu misolda ko`rinib turibdiki, ustozlar, talabalar, mehmonlar undalamari ham ubshib kelgan, ularda chaqiriq, murojaat qilish intonatsiyasi sezilib turibdi. Ubshgan undalmalarning har biri alohida sanash intonatsiyasi bilan aytiladi. Biror undalmani izohlovchi undalmalarda inonatsiya bir xil bo`lmay, ohiriga tomon ko`tarilib boradi: **Aziz shogirdlarim, o`g`il- kizlarim, bayramingiz qutlug` bo`lsin!** Ma`lumki, to`liq chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etiladigan undalmadan so`ng cho`zik pauza bo`ladi. Shuning uchun ham undalmali gap ko`chirma gap bo`lsa, muallif gapi ko`pincha undalmadan so`ng keladi: **Akaxon, - dedim, - ayb o`zingizda, qo`rqoqlik bilan uzokka borib bo`lmaydi.** (II tom, 66-bet). Agar undalma tuli emotsional ma`nolarni ifodalash vazifasida kelsa, asosiy gapning o`rtasi Yoki ohirida bo`lsa, undalma kiritilgan gap kichik bo`lsa, undalmaning intonatsiyasi asosiy gap intonatsiyasidan juda kam farqlanib, pauza bilan ajratilmaydi Yoki juda qisqa pauza bo`ladi: **Ozgina chidanglar, o`rtoklar!** (II tom, 46-bet). Prokuror, dardingni ayt. (II tom 269-b). Keling, Alibek og`a! (II tom, 112-b). Gap o`rtasida kelgan undalmaning intonatsiyasi alohida ajralib turmaydi, ammo undalma mavjud bo`lgan o`rinda intonatsiya ma`lum darajada o`zgaradi, undalmadan so`ng juda qisqa pauza bo`ladi. Ayniksa, tarkibi Yoyiq Yoki undov so`z bilan kelgan undalma intonatsiya jihatidan ancha ajralib turadi. Shu bilan birga emotsional ma`nosi kuchli bo`lgan, logik urg`u olgan undalma gapning qaysi o`rnida kelishdan qat`iy nazar gap bo`laklaridan ajralib turgan alohida intonatsiya bilan talaffuz etiladi.

Undalmaning semantik xususiyatlari va tiplari

An`anaviy tilshunoslikda gap bo`laklari orqali atributiv, ob`ektiv, relyativ, predikativ kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanishi ta`kidlanadi. Shu bilan birga undalma va kirishlar ham ma`lum munosabatlarni ifodalaydi. Lekin undalma va kirishlar orqali ifodalangan mazmuniy munosabat boshqa mazmuniy munosabatlardan tubdan farq qiladi. Atributiv, ob`ektiv, relyativ munosabatlar gap orqali ifodalanaYotgan sintaktik vaziyatning (*propozitsiya, diktum*) ikki unsur o`rtasidagi munosabat bo`lsa, undalma va kirishlar ifodalangan munosabat gap orqali ifodalanaYotgan sintaktik vaziyat Yoki uning ma`lum unsuri bilan

soʻzlovchi oʻrtasidagi munosabatdir. Shuning uchun sintaktik shakllar oʻrtasida ifodalangan mazmuniy munosabatni ikki guruhga ajratish mumkin boʻladi:

- 1) Obʻektiv munosabat.
- 2) Subʻektiv munosabat.¹⁶

Undalma va kirishlar subektiv munosabatni ifodalaydi.

Gap ifodalagan sintaktik vaziyat Yoki uning unsuri bilan soʻzlovchi oʻrtasida qanday munosabat mavjudligiga koʻra subʻektiv munosabat ifodalovchi undalamalarni uchga ajratish mumkin:

- 1) Undash munosabatli - uslubiy holis undalmalar.
- 2) Modal munosabatli - biror koʻshimcha maʼno beruvchi undalmalar

Soʻzlovchi nutq jarayonida maʼlum voqelik haqida axborot berish davomida tinglovchining diqqatini Shu axborotga jalb qilgisi Yoki bu axborotga qoʻshimcha ravishda tinglovchiga oʻzining maʼlum subʻektiv munosabatini ifodalagisi kelib kolishi mumkin. Ana Shunday munosabat undash munosabati sanaladi.¹⁷

Ushbu munosabat mavjud boʻlgan gap mazmunan murakkablashadi, obʻektiv mazmunga - diktunga subektiv mazmun, soʻzlovchining undosh munosabati koʻshiladi: Masalan, **Birodar qaYoqqa ketayapmiz?** (II t, 46-b).

Bkoridagi gapda soʻzlovchining niyati oʻzini va boshqalarni qaYoqqa ketaYotganini aniqlash, bu haqida axborot olish maqsadida tinglovchiga - **birodariga** murojat kilyapti. Uning diqqatini nutq jarayoniga jalb qilyapti. Undalmali gaplarda subʻektlar miqdori ham kengayadi: obʻektiv vaziyatdagi muayyan harakatni bzaga chiqaruvchi subʻektga tinglovchi subʻekt koʻshiladi.

Biror qoʻshimcha maʼno beruvchi undalmalar nutq adresatini koʻrsatish bilan birga, uni Xarakterlaydi, emotsional boʻYoqqa ega boʻlib, nutq taʼsirchanligini taʼminlaydi. Masalan: **Domlajon, uydamisiz?** (II t, 224-b). Misolda undalma soʻzlovchining tinglovchiga boʻlgan hurmatini ifodalashga xizmat qilgan. Bundan tashqari undalmalar yana bir necha xil qoʻshimcha maʼnolarni berishini misollar asosida koʻrishimiz mumkin:

a) gʻazab maʼnosini bildiruvchi undalmalar: **Jim boʻl, ilonvachcha!** (II t, 10-bet). **Qoʻllarimni boʻshat, haromi**(II t, 183-b).

b) iltijo, yalinish maʼnolarini ifodalovchi undalmalar: **Jon aka, bu kishini biz taklif qilganmiz.** (II t, 353-b).

v) hurmat maʼnosini ifolovchi undalmalar: **Adamning gapi toʻgʻri-a?** (II t, 20-b). **Ogʻajon, sogʻintirib bbordingiz-ku!** (II t, 94-b).

g) erkalatish maʼnosini ifodalovchi undalmalar: **Uygʻondingmi, toychoq?** (II t, 8-b). **Al, ogʻayningni ishi pachavaroq emasmi?** (II t, 336-b).

d) piching, kinoya maʼnolarini ifodalovchi undalmalar: **Qissadan-hissa Shuki, gapingiz toʻgʻri, “ustoz”.** (II t, 274-b).

j) haqorat maʼnosini ifodalovchi undalmalar: **YOlgʻon gapirma, hunasa, uyda boʻlmagansan.** (II t, 47-b). **Sen axmok, rosdam ham bexabarga oʻxshaysan: domla toʻy qilganlari Yoʻq ukalari olamdan oʻtdi.** (II t,335-b). Bu maʼnolar

¹⁶ Mahmudov N, Nurmonov A.Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi.T., "Oʻqituvchi", 1995.99-B.

¹⁷ Mahmudov N, Nurmonov A.Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi.T., "Oʻqituvchi", 1995.100-B.

ichida undash ma'nosi hammasida takrorlanadigan birlashtiruvchi sema, qolgan ma'nolar farqlovchi ma'nolardir.

"Shaytanat"da, umuman, badiiy asarlarda qo'llangan undalmalarni semantik va stilistik funktsiyasiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Nutq qaratilgan ob'ektni ifodalovchi undalmalar;

Nutq katarilgan ob'ekt ham uch xil bo'lishi mumkin:

a) shaxs; b) shaxs bo'lmagan jonli predmet; v) jonsiz predmet.

a) **shaxsni ifodalagan undalmalarni** ham o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin:

– birinchi: *tinglovchiga qaratilgan undalma;*

– ikkinchi: *so'zlovchining o'ziga qaratilgan undalma.*

Tinglovchiga qaratilgan undalma kishining nomi, familiyasi, tahallusi, karindoshligi, Yoshi, kasbi, unvoni va boshqa xususiyatlarini ko'rsatish mumkin: **Qalay, hofiz, urintirib ko'ymadikmi? (II t, 302-b). Ahadbey, Farg'onaga hayda! (II t, 350-bet). O'rtok prokuror, bunisiga nima deysiz? (II t, 47-bet). Birodar, bu uyga tengmanglar! (II t, 26-b). SHomil, mana buni qara, Jamshid o'ldirildi, qizi o'zini osdi, bolasi o'lik tug'ildi. (II t, 142-b). Ey grajdanin nachalnik, o'n kun oldingi gap esimda turadimi? (II t, 139-b). Aleksey Petrovich, odam bbormaganingiz yaxshi bo'libdi. (II t, 283-b).**

Undalma so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi mumkin. Buni Elchin va Anvarning o'ziga - o'zi gapirgan gapida ko'rishimiz mumkin: **Asadbek ko'lida qo'g'irchoqqa aylanganingiz muborak bo'lsin, Elchinboy (II t, 303-b). Mirzo Anvar, seni jinnilar ham saflariga kabul qilmaslar (II t, 331-b).**

Mumtoz adabiyotimiz vakillarining she'rlarida shoir o'zining otini turli Yo'llar (o'z - o'ziga undash), o'z nomini leksik ma'nosini Shu misralarnig mazmuni bilan bog'lab bu nomni gap bo'lagi sifatida berishi, o'z tahallusini izohlash orqali berish, o'zini uchinchi shaxs sifatida tasvirlash va bundan boshqa Yo'llar bilan ohirgi baytga ko'shib, she'rning kimniki ekanligini ko'rsatilgan. Bu Yo'llarning eng ko'p tarqalganlaridan biri o'z nomini, tahallusini undalma sifatida berib, o'z - o'ziga undash shakldir.

Ey, Navoiy, ishk agar ko'nglingni vayron etmadi,

Bas nedirkim, qon kelur, og'zindin afg'on aylagan.

(Navoiy)

Bir sen emassen havosi birla xor-u muftalo

Ey, Atoyi, ul bzi gulni hazor orzular

(Atoiy)

Undalmalarning bunday qo'llanishi hozirgi she'riyatimizda ham uchrab turadi.

b) undalma jonli predmet bo'lishi mumkin. Bunday undalmalar hayvon, parranda, hasharot nomlari bo'lib, ko'pincha, masal, matal, ertaklarda, ba'zan she'riyatda qo'llaniladi. Jonli predmetlarga qaratilgan undalmalarni ikkiga ajratish mumkin:

I. Hayvonlarning, turdosh otlarini bildiruvchi undalmalar; Tohir Malik asaridagi Elchin va Anvar timsollarini Xarakter xususiyatlarini kengroq Yoritish maqsadida, asarning turli o'rinlarda kahramonning kayfiyatiga mos she'riy parchalarni bergan. Xuddi Shunday parchalarning biridagina bunday undalmani ko'rish mumkin: **Xayr endi, sen ketding, begunox o'hu.** Bu misra Elchin aytgan qo'shiqdan bo'lib, **begunoh o'hu** undalma vazifasiga kelgan.

a) hayvonlarning laqablarini, ya'ni ularga atab ko'yilgan otlarni ifodalovchi undalmalar. Buni o'zbek nosirlari asarlarda kam uchratdik. **Qani, Jayson, ol, buni!**

(ch.Aytmatov, "KiYomat") bu misolda **Jayson** soʻzi undalma vazifasida kelgan boʻlib, itga koʻyilgan nomni bildiradi.

b) undalma jonsiz predmet boʻlishi mumkin. Bu holat, asosan, sheʼriyatda qoʻllaniladi va predmet maʼlum bir substantsiya tarzida oʻqiladi, ekspressiv Xarakterda boʻladi. Nasriy asarlarda bunday holat deyarli uchramaydi. Faqat bir oʻrinda Anvarning oʻlimi oldidan Yozib qoldirgan sheʼriy parchadagina bu holni kuzatish mumkin:

Boshginamga ogʻnagan, katta togʻlar, alvido!

Misollardagi **katta togʻlar** undalma boʻlib, jonsiz predmetga qaratilgandir.

II. Undalma orqali maʼlum shaxs predmetlarga Xarakteristika beriladi. Bu Xarakteristika shaxs predmetning tashqi Yoki ikki belgisiga koʻra boʻladi. SHaxs, predmeti taʼriflash quyidagi Yoʻllar bilan amalga oshadi:

a) undalma vazifasidagi otga aniqlovchilar koʻshilib keladi: **Ha, odil prokuror ishlar qalay? (II t, 241-b). Keling, mullo Anvar, -dedi Asadbek oʻrnidan turib, (II t, 332-b). Hasanjon, oshna, buni menga koʻyib bering, bilganlarini joniga qoʻyib boʻlsa ham sugʻirib olaman. (II t, 20-b). Isitma bor-ku, qaYoqdan kochib kelyapsan, chuvrindi uka? (II t, 96-b).**

b) undalma boshqa undalmalar orqali izohlanadi. Bu holda shaklan ubshgan undalmalar vujudga kelib, soʻnggi undalmalar birinchi – asosiy undalmani izohlaydi: **Ahadbey, oshna, sen bilan men baxtli odammiz. (I t, 341-b).** Bu misolda Ahadbey asosiy undalma boʻlib, oshna esa, uni izohlab kelgan.

v) shaxs -predmetning tashqi Yoki ichki belgisiga koʻra taʼriflanadi. Bunday predmetlar shaxs predmetga modal munosabatini ham ifodalaydi: **Zeli ogʻa, tuShummi, yo oʻngimi? Inim, otangizning birodarlari, koʻni-koʻshni, qarindosh urugʻingiz bordir-a? (II t, 60-b).** SHaxs - predmetlar boshqa bir jonli, jonsiz predmetlarga oʻxshatish orqali taʼriflanadi (bunda oʻxshatilgan predmetning asosiy Xakeri – belgisi maʼlum shaxs, predmetlarga koʻchiriladi: **Ha, tulki! - Asadbek oʻrnidan turib, eshik tomon brdi. (II t, 300-b). Voy, jigaram, onangdan, onangdan ajralib koldik. (II t, 239-b).** Bu misollarning birinchisida **tulki** undalma boʻlib, qahramonning - tinglovchining tulkiga oʻhshagan ayYorligiga ishora qilingan. Ikkinchi misolda esa **jigaram** undalmadir. " "Farzand jigardan paydo boʻladi" degan gap bor. Shuning uchunmi, farzandni, yaqin qarindoshlarni jigarga, toʻgʻrirogʻi, inson tanasining bir qismiga oʻhshatiladi. Bu xil undalmalar ayrim oʻrinlarda shaxs -predmetning tashqi bir belgisini ifodalaydi: **choʻloq, koʻr, kar** va Shunga oʻxshash soʻzlar undalmalarni tashkil etadi. Baʼzan, **Hay mashinali! Ey mashina!** tilidagi undalmalar ham ogʻzaki nutqda uchraydi. Bunda soʻzlovchi uchun nomaʼlum shaxs birinchi koʻzga tashlanadi. **Hoy shlyapasi bor opam; Ey mashinani boshqaraYotgan kishi** kabi.

Undalma orqali ifodalangan shaxsga soʻzlovchining modal munosabatini koʻrsatish uchun birinchi shaxs egalik affiksidan Yoki -jon, -xon, kabi erkalash affiksalaridan foydalaniladi: **Anvarjon bolam, uydamisan? (II t, 219-b). Siz, azizim, masalani bu tomonidan hotirjam boʻling. (II t, 320-b).**

Baʼzan undalmalar har vaqt egalik affiksi bilan qoʻllanadi: **Gaplaringiz qiziq-ku, inim, ular sizga nima Yomonlik qilishdi? (II t, 348-b).**

III. Undalma soʻzlovchining his-hayajonini ifodalaydi. Bu his - hayajon orqali: gʻazab, nafrat, mazah, iltimos, erkalash, hurmat, shodlik, tabrik kabi hislar anglashiladi:

Taniyman, Bekjon oʻgʻlim, adangiz bilan frontovoy oʻrtoq edik. (II t, 360 -b). Bratishka, hozir paxaningni ogʻaynisinikiga borasan (II t, 17-b). Meni

unutmaganingiz uchun qulluq, azizlarim! (II t, 354-b). Nasib, bu g'alvalar o'tkinchi (II t, 254-b). Hali nima deding, qurruq! (II t, 12-b). Jon oshnam, meni qiynama.(I.t. 19-b).

Undalmalarda presuppozitsiya

Tilshunoslikda presuppozitsiya (tagbilim, tagma'no) termini ostida gap tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no tuShuniladi. Sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, mazkur sodda gapni murakkablashtirishi mumkin. Bunday holatda ayrim so'z Yoki grammatik shakl bilan ifodalangan propozitsiya o'zining icham shakliga ega bo'ladi. Kommunikantlar (so'zlovchilar va tinglovchilar) uchun uning tuShunarli bo'lishiga presuppozitsiya Yordamga keladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda gapning presuppozitsiyasiga bilan o'zbek tilshunosligida ham ortib bormokda.¹⁸

Presuppozitsiya bu gapning kontekstiga ko'ra xoslangan ma'nosi bo'lib, sintaktik konstruktsiyalarning ma'no aspekti bilan uzviy bog'liq hamda uning o'zi pragmatika tarkibiga kiradi. Har kanday gapning sintaktik jihatdan tasvirlash ma'lum miqdordagi presuppozitsiyaga tayanadi, chunki presuppozitsiya nutq jarayonining u bilan bog'liq bo'lmagan "g'ayri nutqiy" sharti bo'lib, uning asosini tashkil qiladi.

Presuppozitsiya sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar bilan ham, berilishi mumkinligini hisobga olganda undalmalar ham alohida bir o'ziga xos presuppozitsiya ifodalaydi deb ayta olamiz.

Undalmali gapning presuppozitsiyasi baYon etilaYotgan fikrga xos bo'lgan uning ichki matni hisoblanadi. Tilning kommunikatsiyasi ob'ektiv va sub'ektiv Xarakterdagi o'zaro bog'langan faktorlarning harakatdagi tizimi bo'lib, u inson muloqotida uchraydi, Shuningdek, muloqat jarayonidagi kommunikantlarning holatini, Xarakterini ham belgilaydi.

¹⁸ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O'TA, 1986, 6-son. Nurmonov A. O'zbek tilida ko'makchi konstruktsiyalar presuppozitsiyasi. O'TA, 1976, 6-son. Nurmonov A va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. "Fan", T., 1992. 113-B

Muloqot jarayoni birinchidan kishilarni o'zaro so'zlashuvga undash, o'sh paytdagi vaziyat va muloqot qatnashchilarning bir - birini to'g'ri tushinishni o'z ichiga oladi. Bulardan so'zlashuvga undash muloqot jarayonining muhim faktorlaridan biri bo'lib, unda so'zlovchi vaziyatga mos ravishda qaysi til birliklaridan foydalanishni o'zi tanlaydi.

Undalmalarni ana shunday turli sohalarda qo'llash ularning pragmatik presuppozitsiyasi bilan bog'lanadi. Ma'lumki, undalmalar gap Yoki bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmasa ham, ular bilan sintaktik munosabat hosil qiladi. Bu munosabat adresatlik munosabati bo'lib, so'zlovchining fikri o'sha adresatga qaratilgan bo'ladi. U (adresat) tinglovchi sifatidagi shaxs Yoki predmet bo'ladi.

Undalmaning eng muhim xususiyati so'zlovchining tinglovchiga nisbatan turli sub'ektiv munosabatlarini presuppozitsiya tarzida aks ettirishdir. Har qanday undalmanda tinglovchiga nisbatan ta'kidlash, ogoxlantirish minnatdorchilik, mamnunchilik, subsh, erkalash, norozilik, g'azab kabi ruhiy holatni, Shuningdek, adresatning sifat belgilari haqida qo'shimcha ma'lumotni ifodalovchi presuppozitsiya mavjud bo'ladi. Masalan, *ЭhtiYot bo'l, bola, jig'ingni ezib qo'yaman.*(II t,104-b). Misoldagi ***bola*** undalmasining tag ma'nosi anglash uchun so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi Yoshni bilishimiz kerak. Bu gap asardagi Haydarning nutqidan olingan bo'lib, tinglovchi esa Mahmuddir. Haydar Mahmuddan 3-4 Yosh katta holos. Mahmud u aytganday bola emas, aksincha, bola - chaqali, kap-katta odam. Haydarning "***bola***" deb murojaat qilishidan, "Men sendan kattaman va kuchliman, sen esa hali bolasan" degan tag ma'noni anglash mumkin. Yoki yana bir misol: Begim bir qoshiq qonimdan keching, sizga noto'g'ri ma'lumot berishibdi. (II t,129-b). Bu gapdagi ***begim*** undalmasi orqali tinglovchining (adresatning) mavqei so'zlovchidan ustunligi, so'zlovchi uning mirzasi - uning uchun hamma narsasi ekanligi presuppozitsiyada anglashiladi.

Ko'rinadiki, o'zaro muloqotda, murojaat qilish uchun, avvalo, kommunikantlar kerak. YA'ni ***X*** (iks)ni ***U*** (igrik) ka murojaat qilishi. Unda ***X U*** ni taqazo etadi. ***X*** va ***U*** odamlardir. (boshqa jonli va jonsiz narsalar ham bo'lishi mumkin, ammo biz bu erda ayni odamlarga murojaatni undashni nazarda tutamiz). Undalmalarning ko'pchiligi shaxsni ifodalovchi undalamalar bo'lib, ular kishilarni ism va familiyalari, otasining ismini ko'rsatuvchi antroponimlardir.¹⁹ Quyidagi gapda tinglovchiga bo'lgan samimiy harakat, hurmat, ehtirom presuppozitsiyasi qo'llanilgan va u undalma orqali berilgan: ya'ni "***Hofiz, mendan kattasiz, sizni xurmat qilaman***"

Undalmalarning qo'llanishiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin :

1. Tanish adresatga murojaat.

2. Notanish Yoki chalatanish adresatga murojaat.

Tinglovchi tanish presuppozitsiyasida undash vositasi sifatida atoqli otlar (atroponimlar), qarindoshlik atamalari, adresatning Xarakteri, odatini bildiruvchi deskreptsiyalar (tasvirlash Xarakteridagi so'zlar) qo'llanadi.

Adresat notanish guruhda esa turdosh otlar, nutq qaratilgan shaxsni Yoshi, tashqi ko'rinishi, joylanishi va boshqalarni Xarakterlovchi deskreptsiyalar ishlatiladi. O'zbek tilida notanish adresatga murojaat kilinganda ko'proq ***pochcha, amaki, hola, kelinoyi, yaxshi qiz, yigitcha, opa, singil*** undalmalari qo'llanadi va ular Shu so'zlarga mos keluvchi adresat katta yoshdagi notanish erkak: pochcha, amaki; katta yoshdagi notanish ayol, o'rta yoshdagi notanish aYol, tengdosh yoki yoshroq kiz, yigit, kattaroq yoki kichikroq yoshdagi ayol, Shuningdek, situatsiyaga

¹⁹ Antroponimika. Uzb.yazik, AKD. T., 1965.

qarab, hurmat yoki kesatq (ijobiy Yoki salbiy) munosabat presuppozitsiyasini aks ettiradi.

Tanish yoki notanish adresatga nisbatan qo'llanuvchi undalmalarda muloqotning (murojaatning) turli sohalarga (qismlarga) bo'linish presuppozitsiyasi aks etadi.

Ularni 4 guruxga ajratish mumkin.

1) ma'muriy - huquqiy undalmalar: **kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, hamkasb, usta, ustoz, o'rtoq, do'st** so'zlari Yoki Shu so'zlardan oldin muhtaram, aziz, hurmatli, qadrli so'zlarni keltirish bilan;

2) ijtimoiy - haYotiy undalmalar: **hola, pochcha, amaki, kelinoyi, bobo, o'rtoq, birodar** so'zlari yoki Shu so'zlardan oldin hurmatli, kadrli, muhtaram so'zlarini keltirish Yoki Shu so'zlarga ko'pincha -jon, ayrim hollarda -xon qo'shimchalarni qo'shish bilan;

3) ijtimoiy - madaniy undalmalar: **onaxon, otaxon, akaxon, opajon, singlim, do'stim** kabi;

4) kasb -hunarga oid undalmalar: **usta, ustoz, domla, otinoya, dehqon** kabi.

Ma'muriy – huquqiy, ijtimoiy haYotda qo'llaniladigan presuppozitsiyasi Yo mansabdor shaxslar, Yo oddiy shaxslar murojaat qilaYotganini bildirib turadi. Chunonchi: mansabga ega bo'lgan bqori lavozimli, mansabdor shaxslar bqorida zikr etilgan leksemaning barchasidan Shundayligicha erkin foydalansa, mavqei, mansabi jihatidan quyiroq turgan oddiy kishilar o'sha leksemalar Yoniga mansabi hamda hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlarni qo'shib murojaat qiladi. Masalan, taqqoslang: **Yana qanday fikringiz bor, ustoz, - yana kanday fikringiz bor, muxtaram ustoz, aytingchi, hurmatli Azizov, aytingchi; Hola, men ham gapirsam maylimi? Holajon, men ham gapirsam maylimi?** Ijtimoiy - madaniy yoki kasb -hunarga oid so'z undalamalarinning qo'llashda esa, ko'pincha kommunikantlar Yoki jinsi bilan bog'liq presuppozitsiyalar anglashiladi.

Masalan, do'stim, (tengdosh va hurmatli) hamkasb (situatsiyaga qarab, tengdosh, katta, kichik Yoshdagi kishlar), kelinoyi (o'rta Yoshdagi aYol), otaxon - katta Yoshdagi erkak va hurmat ma'nosi va boshqalar.

Demak, gap tarkibidagi presuppozitsiyalar tasniflovchi belgilarni o'z ichiga oladi. Masalan, muhtaram doktor janoblari, gapiravering (III tom, 49-b). Bu gapdagi doktorning Yoshi katta "erkak kishi" presuppozitsiyasi tasniflovchi belgi bo'lsa, "ilimli", "hurmatli" kishi" pressuppozitsiyasi Xarakterlovchi belgilardir.

Tasniflovchi belgilar ikvistentsional ma'lumot bersa, Xarakterlovchi belgilar sub`ektiv Xarakteristika beradi. Bu har ikki axborot Xam ayni gap tarkibida undalmadan anglashladigan presuppozitsiya (tagbilim) orqali beriladi.

Shuningdek, undalmali gap **rema** va **tematik** Xarakterda bo'ladi. Undalma (muhtaram doctor janoblari) **rema** bo'lsa, boshqa so'zlar (gapiravering) tema hisoblanadi. Rema - yangi ma'no bildiradigan qism. Rema doimo presuppozitsiya ta'sir doirasida turadi. Mantikiy urg'u ayni Shu undalmaga tushganida bqoridagi gapdan "boshqalar gapirmasin, faqat doktor gapirsin" pressuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, undalmalar pressuppozitsiyasi gap semantikasi bilan chambarchas uzviy bog'liq bo'lgan pragmatikaning o'rganish ob'ektidir, chunki nutq vaziyati bilan kontekst pragmatik tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Ayni gaplardan kelib chiqadigan presuppozitsiyaning kommunikantlariga tuShunarli

bo'lishi uchun nutq vaziyati va konteks juda zarur. Bu esa undalmalar pressuppozitsiyasini pragmatik Yo'nalishda zarurligini ko'rsatadi.

Undalma stilistik vosita sifatida

Undalma so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko'ra, kuchli stilistik vosita hisoblanadi. Undalmalar so'zlovchining tinglovchi munosabatlarini ifodalab, baho Xarakteristikasi ottenkasi ijobiy, salbiy, neytral, ko'tarinki, tantana kabilarga ega bo'ladi. Undalma o'zining leksik - grammatik tabiati bilan undashdan tashqari, bu vazifada kelgan shaxs, predmetlarni Xarakterlaydi ham. Ularning ko'pchiligi ekspressiv Xarakterda bo'lib qo'llanilishiga ko'ra turli xususiyatlarga egadir.

Undalmalar ko'proq so'zlaShuv, badiiy, publistik uslublarda, qisman rasmiy- idoraviy uslubda qo'llanadi. Ilmiy uslubda undalmaga deyarli murojaat qilinmaydi. Undalmalarni baho Xarakteristikasi ottenkasini ifodalashga ko'ra ikki katta guruhga ajratish mumkin.

1. Stilistik neytral undalmalar.

Bunday undalmalarga so'zlovchining baho Xarkteristikasi neytral bo'ladi. Ular so'zlaShuv, rasmiy - idoraviy uslublarga xos: **Nomozov, men sendan javob**

kutayapman. (III t, 169-b). Zaynab, men hammasini bilaman. (II t, 372-b). Ota, ko'ngilchanlik qilmanglar. (II t, 349-b).

2. Baho Xarakteristikasini ifodalovchi undalmalar.

Ular emotsional-ekspressiv bo'Yoqqa ega bo'lib, faqat nutq adresatini ifodalamay, uni Xarakterlaydi. Unga munosabat bildiradi. Bu hol quyidagi faktlar bilan bog'liq:

a) *undalma o'z leksik ma'nosiga ko'ra ifodalanadi.* Bu ijobiy Yoki salbiy bo'lishi mumkin: **Adasi, doni qolsa ham, suvini iching. (II t,188-b). Bekor aytibsan, itvachcha. (II t,187-b).**

Birinchi misoldagi **adasi** undalma bo'lib, ijobiy baho ifodalanadi. Xalqimiz orasida *dadasi, onasi* degan so'zlar ishlatildiki, bu er - xotinning bir - biriga murojaatida qo'llanib, o'zaro hurmatni anglatadi. Ikkinchi misolda salbiy bahoni ifodalash uchun harakat ma'nosini ifodalagan vulgarizmdan foydalanilgan.

b) *baho Xakeri.* Undalmaning obrazlilik u bilan birga kelgan so'zlarga bog'liq.

Obrazli aniqlovchilar, izohlovchilar bilan kelgan undalmalar nutqni obrazli qiladi. **Tog'ni shamol Yoki Yomg'ir emirib tugata olmaydi, o'qdingmi, dono odam? (II t,207-b). O'sha ham hamkasbim ishdagi btuqlar, qalay yaxshimi? (II t,193-b). Xo'sh, dono yigit, qaerga borganingni bilasizmi, o'zi? (III t,104-b).**

v) *baho ifodalashda intonatsiyaning ham roli kattadir.* Undalmaning intonatsiya bilan ishlatilishi uning turli ma'no ottenkalari ifoda qilishni ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, undalma undov so'zlar bilan kelganda yaqqol seziladi: **Hoy, yaxshilar, bu uyda domla turadilar (II t,26-b). Hey akasi, egasiz o'liklar taxlanib turgan joy bormi? (II t, 103-b).**

g) *undalmaning baho Xarakteristikasini ifoda qilishda egalik, hamda -jon, -xon, -choq affiksalaridan foydalaniladi: Hammamiz birgamiz toychoq, -deydi otasi,jilmayib.(III t, 192-b). Inim, siz bola -chaqangizni Yoniga boring. (II t, 45-b). Tolibjon, akangizni qiynamang. (II t, 253-b).*

Birinchi misoldagi toychoq ma'nosi erkalash ma'nosida ishlatilgan. Ikkinchi misolda -m egalik affiksini so'zga qo'shilishi hurmat, yaqinlik ma'nolarini ifodalaydi. Uchinchi misolda ham -jon affiksi qo'shilib, Tolibga bo'lgan hurmatni ifodalagan.

d) *So'zlaShuv uslubida buyruq maylining I shaXs birlik shaklining undalma vazifasida kelishi hollari uchraydi: Iching, aylanay, iching. Terlasangiz o'tib ketadi. (III t, 132-b).* Bunda ham so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan hurmatini va Xushmuomala ekanligini anglash mumkin.

j) *undalmaning takrorlanib kelishi ham baho Xarakteristikasi ottenkasini kuchaytiradi.* Bu so'zlaShuv, badiiy va ommabop uslublar uchun Xarakterlidir: **Adasi, adasi, ko'zingizni oching, sizga nima bo'ldi? (II t, 7-b).**

Ayni bir undalma boshqa so'z orqali takrorlanadi: **Э he, Xongrey, azizim, menga yaXshilik qilaman deb, Yomonlikni ravo ko'ribsan-ku? (II t, 303-b).**

z) *undalma gradatsiya (kuchaytirish) uchun Xizmat qiladi.* Bunda undalmalar ma'no jihatdan yaqin Yoki sinonim so'z bo'ladi:

O, Mahmud chuvrindi, ukaginam, deb o'yladi Kesakpolvon, sen meni laqillatmoqchimisan? (III t, 22-b).

Эy! Sen meni Xaqir ko'rgan, tuan degan afandi,

Эy! Ustimdan Xo'ja bo'lmoq istagan. (I t, 35-b).

Bu misollarda undalma ma'noni kuchaytirish uchun Xizmat qilgan. Birinchi gapda Mahmud so'zidan keyin chuvrindi ukaginam so'zini keltirish bilan Yozuvchi

soʻzlovchining tinglovchiga boʻlgan salbiy munosabatni kuchaytirgan. Ikkinchi misolda undalma undov soʻzlar va soʻz izohlovchilari bilan kengaygan. Yozuvchi soʻzlovchining afandiga murojaatini kuchaytirish uchun undov va izohlovchilarni birgalikda qoʻllagan. Undalma umumlashtiruvchi birlik va uoShuq undalmalar shaklida ham uchraydi. Ushbu misolni koʻrib oʻtamiz: **Mehribon doʻstlarim, oʻquvchilarim, kasbdoshlarim, ustozlarim: bu maktab barchangizga qadrli va azizdir!** Bu misolda umumlashtiruvchi undalma Mehribon doʻstlarim oʻquvchilarim, kasbdoshlarim ustozlarimdir. Soʻzlovchi tinglovchiga murojaatni kuchaytirish uchun ularning har biriga ham alohida murojaat qiladi.

Maʼlum shaxsga qaratilgan undalmalar baʼzan soʻzlaShuv uslubida jon soʻzi bilan keladi. Bu vaqtda undalma iltijo ottenkasiga ega boʻladi. **Jon qizim, meni tiriklay oʻtga tashlama!** (III t, 149-b). Misolda undalma jon komponenti bilan birga kelgan. Bu holat iltijo, yalinish maʼnosini kuchaytirgan.

SoʻzlaShuv uslubida undalma tarkibi baʼzan murakkab holda boʻladi: **Ey, mening Yorugʻ shamim! YOrugʻ shamimgina emas, Yoʻq, ey, koʻzimning ravshan nuri, soʻzlarining sharofati bz ming jondan ortiq!** (I t, 152-b).

SoʻzlaShuv uslubida asli bir gap shaklida boʻlgan konstruktsiyalar ham undalma vazifasida keladi. Bularning maʼlum qismi frazeologizmga aylanib ketgan: **Vey, tomi ketganlar, Shuncha kasal oʻlikda ham boʻlmaydi, dedim,** (III t. 15-b). Bu misolda **tomi ketganlar** iborasi undalma vazifasida kelgan boʻlib, "ahmoq, aqlsiz" degan maʼnoda qoʻllangan. Yozuvchi bu iborani qoʻllash orqali soʻzlovchining oʻziga xos nutqini yaratgan va uning tinglovchiga boʻlgan salbiy munosabatini Yorqinroq ifodalagan. Rasmiy - idoraviy uslubda undalmalar soʻzlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifodalaydi. Badiiy, publisistik, soʻzlaShuv uslublarida esa, undalmalar nutqining emotsional ekspressivligini oshirish maqsadida jonli va jonsiz predmetlarga qaratilishi ham mumkin, ammo bu holat koʻprok sheʼriyatda qoʻllanganligi uchun asarda deyarli uchramasligini bqorida aytib oʻtgan edik, Shunday boʻlsa-da, quyidagi boshqa asardan olingan misolni koʻrsatishimiz mumkin:

Vatanim! Osmonning uzra tovlanar nur kamalak

Olti yilki, har daqiqang jilolari olar koʻz!

(H. SHaripov, "Xirmon" 15-bet).

Oq oltinim, sen dunYoni ilk koʻrgan kundan buYon

Sezganmiding, oʻz kudrating Shu damgiday sarbaland.

(H.SHaripov, "Xirmon" 21-bet).

Vatanim undalmasi jonsiz predmetga nisbatan qoʻllangan boʻlib, ekspressivlikni kuchaytirishga xizmat qilgan. Ikkinchi misoldagi undalma oq oltinim boʻlib, "oq oltin" ekspressiv boʻYoqdor soʻz hisoblanadi, paxta soʻzining oʻrnida qoʻllalgan.

k) undalma badiiy adabiyotda personajlar nutqini Xarakterlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, boshqa brt, aniqrogʻi, chet ʼllik odamning oʻziga xos nutqini yaratishda, oʻz Xalq tiliga xos soʻzlar undalma vazifasida qoʻllanadi. **Afandim, anglamak joizki, Vatan bir bogʻdir.**(III t, 47-b). **Marxabo, xonim afandim, xush keldingiz,- dedi u Manzura uchun begona boʻlgan lutf bilan.** (III tom, 41-b). Bu misollardagi afandim, xonim afandim, undalmalari Turkiyada yashovchi oʻzbeklardan boʻlgan doktor XudoYor nutqiga tegishli. Uning nutqini individuallashtirish maqsadida Yozuvchi Shunga oʻxshash bir necha iltifotli undalmalarni qoʻllagan.

l) undalmalarning gapdagi o`rni (gap boshida, o`rtasida, ohirida) ham bahoni kuchaytirishda muhimdir. Odatda, baho undalmalari gap ohirida kelib, gapdan pauza bilan ajratiladi: **Bugun kech kolding, bratan.** (II tom, 265-b). Odam **o`zgarib turadi, Nadulya.** (II tom, 112-b). Bu misollarni birinchisidagi **bratan** undalmasini qo`llash bilan so`zlovchining tinglovchiga bo`lgan mensimaslik munosabatini anglash mumkin, **Nadulya** esa, Nadejda degan ismni erkalatib aytilgani bo`lib, so`zlovchining unga nisbatan samimiy munosabatini anglatiladi.

So`zlashuv uslubiga xos bo`laklarga ajralmaydigan gaplarda ham undalma keladi: **Nega, Zeli og`a?** (II t, 109-bet). Murakkab tarkibli va undov so`zli undalmalar nutq qaratilgan shaxs diqqatni jalb qilish uchun qo`llanganda, gap boshida keladi: **Turdi, ularning gapiga ishonmadi, Yolg`on aytishdi.** (II t, 92-b). Ushbu misolda undalma **Turdi**.

Xalqimizda er-xotin bir birini bosh farzandining ismi bilan chaqirish odati bor. Turdi aslida so`zlovchi, ya`ni chol va tinglovchi, ya`ni kampirning yaka-b yagona farzandlarining ismi bo`lib, chol kampir bir- birlarini Shunday deb chakirishadi. Bu er - xotin o`rtasidagi hurmatni aglatadi. Undalma gap o`rtasida kelganda ham baho ifodalashi mumkin:

Boshqa choramiz Yo`q, otaxon, qishlog`ingiz tinch, bilamiz. (II tom, 61-b). Bu o`rinda undalma **otaxon** bo`lib, hurmat ma`nosida qo`llangan. Ba`zan, hurmat ma`nosini ifodalash uchun qarindoshlik nomini bildiruvchi undalmalarga **-xon** affiksi qo`shiladi: **Nega unaqa deysiz, akaxon?** (II t, 358-b).

Undalma gap tarkibida shakliiy tomondan boshqa bo`laklar bilan tobe munosabatga kirishmasa ham, lekin ular bilan mazmuniy tomondan ma`lum munosabatda bo`lgan sintaktik shakllardan biri. Uning, ya`ni undalmaning o`zbek badiiy asarlarida, proza va she`riyatda, ayniqsa, Tohir Malikning "Shaytanat" aasarida tutgan o`rni juda ham muhim. Shu nuqtai nazardan asardagi undalmalrni imkon qadar sinchiklab kuzatishga harakat qildik. Badiiy asarlarning tilida, ya`ni Yozuvchi nutqida qo`llangan undalmalarni o`rganish asosida undalmalar haqidagi tilshunoslarimizning ilmiy va asosli nazariy fikrlariga tayanib, Bitiruv - malakaviy ishimizni Xulosaladik.

Umumiy xulosalar

Xalq tariXining asosiy va ajralmas qismi bo`lgan Xalq tilining, uning o`ziga Xos fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o`rganish tariXiy an`analarimiz va kelajagimiz, taraqqiyotimiz uchun muhim omillardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishimiz orqali o`zbek tilining grammatik jihatlariga, uning badiiy asarlardagi jozibasiga, tilimizning keng va beqiyos imkoniyatlariga nazar tashlab, o`zbek tili grammatikasining bir qismi bo`lgan sintaksis haqida, undalmaning gap bo`laklari bilan

aloqasi, undalmaning ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turlari haqida, undalmaning nutqdagi o'rni va uning intonatsiyasi, undalmaning semantik Xususiyatlari va turlari, undalmalarda presuppozitsiya va undalmaning stilistik vosita sifatidagi tomoni va o'rinlariga bag'ishlangan bir talay ilmiy ishlar bilan tanishib chiqdik.

Bu soha bazasida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olimlardan G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sayfullaev, R.Sayfullaeva, I.Abdullaev, M.Omilxonova, A.Abdullaev, M.Muhammadiyeva, I.Toshaliyev, H.Usmonova kabilarning ilmiy-nazariy fikrlariga tayandik.

Biroq, kuzatishlarimiz jarayonida undalma va undagi presuppozitsiyaning o'rniga oid maxsus ilmiy ishlarni uchrata olmadik.

Bitiruv - malakaviy ishning nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu mavzu o'zida uchta: undalmaning gap bo'laklari bilan aloqasi, undalmaning nutqdagi o'rni va uning intonatsiyasi, undalmalarda presuppozitsiya va undalmaning stilistik vosita sifatidagi tomonlarini o'rganib, quydagi Xulosalarga keldik:

1. Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan boshqa bir shaxs yoki predmeti ifodalagan so'z Yoki so'z birikmasidir.

2. Undalma ot, sifat, olmosh va undov so'zlar bilan, frazeologizmlar bilan, turli leksik birliklar, sheva xos so'zlar, varvarizmlar va vulgarizmlar bilan ifodalanishi mumkin.

3. Undalma gap bo'lagi bo'la olmaydi, chunki bu gap bo'laklarga ajratishning bosh mezoni bo'lgan toblanishi talabiga javob bermaydi, undalma gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, ammo muzmunan bog'liq bo'ladi.

4. Undalma gapning har erida kela oladi va har bir o'rinda o'ziga xos intonatsiya bilan aytiladi.

5. Undalmaning intonatsiyasi undalma ifodalagan ma'noga asosiy gapning Xarakteriga so'roq, undov, darak gap bo'lishiga, tarkibiga, o'rniga, nihoyat, muallifning ma'lum mazmunni ifodalash niyatiga bog'liq bo'ladi.

6. Undalmani uchta katta tipga ajratish mumkin:

- *nutq qaratilgan ob'ektni ifodalovchi undalmalar;*
- *ma'lum shaxs, predmetlarga Xarakteristika beruvchi va ta'riflovchi undalamalar;*
- *emotsiya ifodalovchi undalmalar.*

7. Undalmada ham presuppozitsiya hodisasi mavjud bo'lib, presuppozitsiya gap semantikasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan pragmatikaning o'rganish ob'ektdir.

8. Undalma badiiy asarning tasviriy ifodalarga boy bo'lishida, ekspressiv bo'Yoqdorlikni oshirishda muxim stilistik vosita hisoblandi.

9. Sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, mazkur sodda gapni murakkablashtirishi mumkin.

10. Ayrim so'z Yoki grammatik shakl bilan ifodalangan propozitsiya o'zining ihcham shakliga ega bo'ladi.

11. Kommunikantlar (so'zlovchilar va tinglovchilar) uchun gapdagi fikr va mazmunning tuShunarli bo'lishiga presuppozitsiya Yordam beradi.

12. Presuppozitsiya gapning kontekstiga ko'ra xoslangan ma'nosidir.

13. Har kanday gapning sintaktik jihatdan tasvirlash ma'lum miqdordagi presuppozitsiyaga tayanadi, chunki presuppozitsiya nutq jarayonining u bilan bog'liq bo'lmagan "g'ayri nutqiy" sharti bo'lib, uning asosini tashkil qiladi.

14. Presuppozitsiya sodda gap tarkibidagi ayrim soʻzlar bilan ham berilishi mumkin,
15. Undalmalar ham alohida bir oʻziga xos presuppozitsiya ifodalaydi.
16. Undalmali gapning presuppozitsiyasi baʼYon etilaYotgan fikrga xos boʻlgan uning ichki matnidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. *Karimov.I.* Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Toshkent: "Sharq" nashriYoti matbaa kontserni bosh tahririyati, 1998, 5-bet.
2. *Karimov.I.* Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida. Toshkent, "Oʻzbekiston" nashriYoti. 1997. 326 bet.
3. *Karimov.I.* Yoksak maʼnaviyatengilmas kuch. Toshkent, "Maʼnaviyat" nashriYoti. 2008. 176 bet.
4. *Karimov.I.* Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va Xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. "Xalq soʻzi" gazetasi. 2010 yil, 30 yanvar soni.
5. *Karimov.I.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ustivor maqsadimizdir. "Xalq soʻzi" gazetasi. 2011 yil, 28 yanvar soni.

II. Ilmiy va badiiy asarlar

1. *Abdullaev A.* Oʻzbek tilida ekspressivlikni ifodalash. Tosh., 1983.
2. *Abdurahmanov Gʻ, SHoabdurahmonov SH, Xojiev A.* Oʻzbek tili grammatikasi, "Fan", nashriYoti, Toshkent, 1996.
3. *Abdurahmonov Gʻ.* Oʻzbek tili sittaaksiyasidagi murakkab masalalarga doir "Oʻzbek tili va adabiyoti". 3-son, 1962.

4. *Abdurahmonov G`.* O`zbek tili sintaksiyasining ba`zi masalalari, "O`zbek tili va adabiyoti". 2-son, 1968.
5. *Asqarova M, Abdullaev I, Omilxanova M.* Ona tili 8-9-sinflar uchun darslik. Toshkent, "O`qituvchi", nashr., 1995. 6.
6. *Zakiev M.* Sintakticheskiy story tatariskogo yazO`ka. Kazan, izd- vo gosunv. 1968.
7. Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak Yo`q. Toshkent: " Shark" nashriYoti matbaa kontserni bosh tahririyati.1998.
8. *Mahmudov N. Nurmonov A.* O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Tosh, "O`qituvchi" nashr., 1995.
9. *Muhammadiyeva M. H.* Undalmalarda presuppozitsiya, NamDU o`zbek tilshunosligi kafedrası ilmiy nazariy konferentsiyasi uchun ma`ruza. Namangan, 1998.
10. *Reshetov V.V. va boshqalar.* Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2-kitob. Sintaksis. Tosh. "Fan"nashr., 1966.
11. *Sayfullaev.A.* Hozirgi o`zbek tilida undalma. Ma`ruza. nauchno -teoreticheskiy konfrens. Bux. gost. ped. ins. Buxoro, 1957.
12. *Sayfullaev.A.* Undalmaning leksik semantic xususiyatlari haqida. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand dav. unv. o`zbek tilshunosligi kafedrası Samarqand, 1958.
13. *Sayfullaev .A.* Undalmaning umumiy Xarakteristikasi. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand dav. unv. o`zbek tilshunosligi kafedrası Samarqand, 1963.
14. *Sayfullaev. A.* Undalamning grammatik - leksik ifodalanishi. O`zbek tili va adabiyoti masalalari. 3-son, 1960.
15. *Sayfullaev. A.* Gapning uchinchi darajali bo`laklari. "Sovet maktabi" jurn., 2- son, 1967.
16. *Solntsev S. M.* YAzO`k kak sestemno stukturnoe abrazovanie. M., izt- vo "Nuka", 1971.
17. *Tohir Malik.* "Shaytanat"" , I tom. Tosh., 1994.
18. *Tohir Malik.* "Shaytanat"" , II tom. Tosh., 1996.
19. *Tohir Malik.* "Shaytanat"" , III tom. Tosh., 1997.
18. *Toshaliyev I.* Hozirgi o`zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. Tosh., "Fan"., 1976.

20. *Usmonov S va boshqalar.* Tilshunoslikda muhim voqea. “O`zbekiston madaniyati” gazetasi. 10 dekabr, 1968.
21. *G`ulomov A.* Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent., 1965.
22. *G`ulomov A.* O`zbek tili grammatikasi. Toshkent., 1996.
23. *SHomaqsudov va boshqalar.* O`zbek tili stilistikasi. Toshkent., 1983.